

TO‘RABEK XONIM BILAN SULTON SANJAR

(Xorazm vohasi ertaklari)

Qadim o‘tgan zamonda Ko‘hna Urganch tomonda bir podsho bor ekan, davlat unga yor ekan, qo‘shinlari ko‘p ekan, yurtdan ko‘ngli to‘q ekan, eli ko‘p obod ekan, podsho tinch-u, shod ekan, oti Odilshoh ekan, adl unga hamroh ekan. Odilshohning dunyoda birgina qizi bor ekan, uning ismini To‘rabek xonim der ekanlar. Bu qiz yakka-yagona ekan, oqil-u dono ekan, kiyim kiysa yarashar, hamma unga qarashar ekan, o‘zi ko‘p sohibjamol, har kim ko‘rsa aqli lol ekan, ko‘p kitob o‘qir ekan, she‘r-g‘azal to‘qir ekan. Saroyda maslahatchi, maydonda botir jangchi, arg‘umoqqa minganda, otning boshini qo‘yganda, hech kim unga yetolmas, yetib o‘tib ketolmas ekan.

To‘rabek xonim o‘n sakkiz yoshga yetgan, dovrug‘i olamga ketgan ekan. Uzoq-yaqin yurtlardan manman degan shahzoda-yu, xonvachcha-bekzodalar To‘rabek xonimni juft-u halollikka olaman deb umid bilan kelar ekanlar, lekin To‘rabek xonim barini mot qilib qaytarar ekan. To‘rabek xonim xushtorlarning oldiga uchta shart qo‘yar ekan: g‘azal aytishda yengib chiqsa, ot chopishda o‘zib ketsa, qilich o‘ynashda ustun chiqsa, shu odamga rafiqa bo‘laman, der ekan. Lekin hech kim bu qizga bas kelib, qo‘ygan shartlarini ado etolmas ekan.

Kunlardan bir kun Marvi degan yurtning podshosi To‘rabek xonimning ta‘rifini eshitib, o‘zini ko‘rmay, oshiq bo‘lib qolibdi. Bu podshoning ismini Sulton Sanjar moziy der ekanlar. Uning lashkari Hon-sanoqsiz, o‘zi ko‘p zolim ekan, hech tinch o‘tirmay, doim boshqa yurtlarning podsholari bilan jang-jadal qilaverar ekan. Qisqasi, Sulton Sanjar To‘rabek xonimni juft halollikka olaman, deb Xorazm podshosi Odilshoh oldiga tuya-tuya mol-dunyo ortib, sovchi yuboribdi: «Shunday, shunday, qizingni menga rafiqalikka berasan, o‘zing menga qaram bo‘lasan, yo‘q desang, o‘zingni dorga osaman, qizingni cho‘ri qilaman, yurting vayron bo‘ladi, mol-dunyong talon- taroj qilinadi», deb xat bitib yuboribdi.

Sovchilar Odilshohning yurtiga borib, Sulton Sanjarning xatini topshiribdilar. Odilshoh o‘ylanib qolibdi: «Agar yo‘q deydigan javobni bersak, Sulton Sanjar zolim, lashkari ko‘p, urush-janjal zo‘rayib, begunoh odamlarning qoni bekorga to‘kiladi, qanday maslahat berasizlar?», — deb o‘z odamlariga so‘z qotibdi. Saroydagi odamlar ikkiga bo‘linibdi. Bir xillari: «Urush qilmaylik, qizingizni Sulton Sanjarga bera qoling», — deyishibdi, ikkinchi taraf: «Urushamiz» — debdi.

Podsho To‘rabek xonimning o‘zidan maslahat so‘rabdi. To‘rabek xonim hech narsa demay, Sulton Sanjarning xati orqasiga: «Axmoq o‘zini maqtar, kuchingni maydonda ko‘rsat!» — deb yozib, sovchilarning yuziga qora surtib, Xorazm tuprog‘idan haydatibdi. Sulton Sanjar moziy bunday javobni olgandan keyin, juda g‘azablanib ketibdi. «Hap senimi!» — debdi-da, son-sanoqsiz lashkarlarini olib Xorazmga yurish qilibdi.

Xorazm yurtiga yaqinlashganda Odilshohning askarlariga duch kelibdi, ikki lashkar o‘rtasida ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan jang-u jadal bo‘libdi, olti oy urush bo‘libdi, ikki tomondan juda ko‘p odamlar nobud bo‘lib, lekin hech kim yengolmabdi. Sulton Sanjar moziy Odilshohga yana xat yuboribdi: «Menga bo‘yin eg, qizingni rafiqalikka ber, bo‘lmasa, undoq qilaman, mundoq qilaman!» — deb do‘q uribdi, bo‘lmabdi.

Sulton Sanjar moziy noiloj, labi-lunji burishib, dami ichiga tushib: «Yovni yengib bo‘lmadi, paymonasi to‘lmadi, askarlarga aytinglar, endi ketga qaytinglar, daryo bo‘ylab yuringlar, falon yerda turinglar, men bir ishni qilayin, rejasini bilayin, so‘ng ko‘rsatgay kuchimni, shohdan olay o‘chimni, yurtini vayron qilay, yurak-bag‘rini tilay, shunday urib boshini, oqizib ko‘z yoshini, kelar Odilshoh o‘zi, bu Sanjar moziy so‘zi», — debdi-da, Amudaryo yoqalab ketaveribdi.

U zamonlarda Amudaryo Tuyamo‘yin bilan Pitnakning o‘rtasiga kelganda ikkiga ajralar ekan, biri hozirgi yo‘li, ikkinchisi kun- botarga qarab, qum oshib Ulli dengizga borib quyilar

ekan. Kunbotarga qarab oqadiganini O'zboy deb atar ekanlar. Uni O'zboy degan xon qazdirgan ekan.

Sulton Sanjar moziy mana shu manzilga kelib yetganda: «Shu manzilga tushinglar, chodirlar tikilsin!» — deb buyruq beribdi. O'zi otidan tushmay Amudaryo qirg'og'iga qarab boraveribdi. Daryo ikki qoya oralig'idan siqilib oqadigan tor joyiga kelib to'xtabdi-da, o'yga cho'mibdi. Ertasi kuni jami lashkarlariga buyruq chiqaribdi: «Daryo suvini bog'lash kerak. Amuning suvini bog'lash kerak, Amuning suvi O'zboyga qarab oqsin, Xorazmga bir qatra ham suv ketmasin. Tog'dan tosh kesib, to'g'on qilinglar!» - deb buyruq qilibdi. Ming-ming askarlar kecha-yu kunduz ishlab tog'dan tosh keltirib, to'g'on yasabdilar, uch oy deganda Amudaryoning suvi bog'lanibdi, suvning bari O'zboyga qarab oqibdi.

Amudaryoning suvi qurib qolgandan keyin Xorazm yurtining ahvoli tang bo'libdi, ekinzorlar quvrabdi, bog'lar xazon bo'libdi, yurtda qahatchilik boshlanibdi. Yurtning kattalari yig'ilib, Odilshohning oldiga borishibdi: «Podshohim, el-yurtning ahvoli juda tang bo'lib qoldi, hali uch oy o'tmay yurtda qahatchilik boshlandi, bundan keyin ahvolimiz ne kechgay? Qizingizni Sulton Sanjarga berib, yurtni bu ofatdan qutqarmasangiz bo'lmas!» - deyishibdi.

Odilshoh qizini chaqirtiribdi va bo'lgan gapni unga aytibdi. To'rabek xonim biroz o'ylab turibdi-da, otasiga qarab: «Jon ota, men el-u yurtning tinchligi uchun o'zimni qurbon qilaman; men Sultonning oldiga ketdim. Agar Amuning suvini keltirmasam, sizning qizingiz emasman, bundan buyon yuz ham ko'rishmasmiz, xayr, otajon, xayr yurtning kattalari!» - debdi-da, saroydan chiqib o'tlanibdi, qirqta mulozimini olib, uzoq safarga chiqibdi. Yurtning boshiga tushgan ofatdan nima qilishini bilmay, boshi qotib qolgan Odilshoh ham bitta-yu bitta qizining istagiga qarshilik ko'rsatmabdi.

To'rabek xonim, shunday qilib yo'l jabdug'ini hozirlab, qirqta mulozimlarini olib, og'ir va uzoq safarga o'tlanibdi. Lekin o'ylab qo'ygan o'yini hech kimga aytmabdi, hatto uning yaqin mahramlari ham hech narsadan xabarsiz ekanlar. To'rabek xonim cho'l-sahrolarni, tog'-biyobonlarni o'tib, qirq kecha-yu qirq kunduz deganda, Sulton Sanjarning Marvi degan poytaxtiga yetib kelibdi. Sulton Sanjar go'zal malikani ko'rib, aqli lol bo'libdi, uning husni-jamoliga qoyil qolibdi.

Lekin hammasidan ham el-yurt deb o'zini qurbon qilgan qizning jasorati, dovyurakligi uni tang qoldiribdi. Sulton hayrat barmog'ini tishlabdi.

Sulton Sanjar moziy To'rabek xonimning oldiga kelib, qo'l qovushtirib salom beribdi: «Qani, malikam, otidan tushsiniar, saroyda dam olsinlar, uzoq yo'l sizdek nozik qizni juda qiynab qo'ygandir», — debdi. Biroq To'rabek xonim otidan tushibdi-da, Sanjar moziyga qarab amrona: «Men sening oldingga yolg'iz o'zim keldim, sen shuni istagan eding. Yurt xarob bo'lmasin, xalq ofatdan qutulsin, sen to'g'onni buzishga buyruq berasan, to'g'on ochilib, suv yana o'z yo'lidan oqsin, shunday qilsang, men doim sening oldingda qolaman», - debdi.

Sulton Sanjar: «Qani otidan tush, saroyga kirib biroz orom ol», — debdi. To'rabek xonim unamabdi. «Men o'z xalqimga Amuning suvi o'z yo'lidan oqmaguncha, uzangidan oyog'imni uzmayman, deb qasam ichganman, cho'llab-qaqrab yotgan yerlar yana suvga to'ymaguncha, bog'lar yana gullab yashnamaguncha, men orom ololmayman», — debdi.

Sulton Sanjar qizning bir so'zli ekanligiga hayron qolibdi, lekin o'z orzu-niyatiga tezroq yetish uchun malikaning shartiga ko'nibdi.

Sulton o'tlanib yo'lga tushibdi. Amu bo'ylab ketaverishibdi. Axir, to'g'on boshiga yetishibdi. Sulton Sanjar askarlariga: «To'g'onni buzinglar!» — deb buyruq beribdi. To'g'onning bir tomoni ozroq ochilgan ekan, to'lib-jo'shib turgan Amu suvi bor kuchi bilan qattiq hayqirib, to'g'onni urib, birpasda uni vayron qilib, tosh-qumlarni, qirg'oqlarni yuvib

ketibdi, to‘g‘ondan asar ham qolmabdi. Shunda To‘rabek xonimning quvligi ma‘lum bo‘libdi. Sulton Sanjar moziy jasur qizning hiylasini umrbod esidan chiqarmagan ekan.

To‘g‘on vayron bo‘lib, Amu o‘z yo‘li bilan oqa boshlaganda, To‘rabek xonim o‘zi mingan uchqur jiyron biyasiga qamchi bosibdi. Sulton Sanjar: «Bu nima qilar ekan» deb og‘zini ochib turaveribdi.

To‘rabek xonim Sulton Sanjar oldiga ketayotib, qirqta eng yaxshi qulunli biyani tanlabdi, Xorazm yurtidan Sulton Sanjar turgan yerga qadar bir manzil-bir manzil uzoqlikda haligi biyalarning qulunini almashtirib bog‘lab ketaveribdi. Biya va qulunlar shunday tartibda qo‘yilgan ekanki, har bir biyaning quluni bir manzil uzoqlikda qo‘yilgan ekan.

Shunday qilib, qirqta biya va qirqta qulun shu tartibda joylashtirilgan ekan. To‘rabek xonim mingan biya qirqinchi biya bo‘lib, uning bolasi o‘ttiz to‘qqizinchi manzilda qoldirilgan ekan. Har bir biya egar-jabduqli, yo‘lga chiqishga shay qilib qo‘yilgan ekan, har biriga bir mulozim qarab turar ekan. To‘rabek xonim mingan biya boshi qo‘yilgan hamon xuddi uchar qushdek o‘z bolasi tomonga qarab uchqunibdi.

Sulton Sanjar gap nimada ekanligiga endi tushunib, qizning orqasidan qirqta yigitini quvdiribdi. Lekin qiz allaqachon ko‘zdan g‘oyib bo‘lib ketgan ekan. Sultonning yigitlari ham arg‘umoq otlarga mingan ekanlar. Ular qizning orqasidan quvib yetay deganda, To‘rabek xonim biyaning bolasi qo‘yilgan yerga kelib, tayyorlab qo‘yilgan boshqa biyaga minib, yana ham tezlik bilan ketaveribdi. Sultonning yigitlari yana yetay deganlarida qiz yana yangi - uchinchi manzilga yetib kelib, tayyorlab qo‘yilgan otni minib, qamchi bosibdi. Shunday qilib, Sulton Sanjarning yigitlari To‘rabek xonimning orqasidan quvib o‘n ikki manzilgacha borishibdi, so‘ng otlari holdan toyib, birin-ketin cho‘zilib qolaveribdi. To‘rabek xonim bo‘lsa, eson- omon o‘z yurtiga yetib olibdi.

G‘azabiga chidolmagan Sulton Sanjar Xorazmga yana lashkar tortib kelibdi. Xorazm podshosi qizining maslahati bilan hamma yoqqa suv toshirib, yo‘llarni suv bostirib yuboribdi. Sulton Sanjarning askarlari loy-botqoqdan yurolmay, cho‘l-sahrodan vuribdi. Qum ichida suvsizlikdan juda qattiq azob chekibdi. Odil podsho lashkarlarini to‘plab Sulton Sanjar moziy bilan qattiq jang qilibdi, To‘rabek xonim ham mingta otliq yigitga boshliq bo‘lib, Sulton Sanjarning lashkarlariga qiron solibdi.

Pirovardida Sulton Sanjar qilich-qalqondan ayrilib, orqasiga qayrilib, qochib boribdi, lashkari parokanda, o‘zi sharmanda bo‘lib, qalpog‘ini oldirib, kuchini yo‘lda qoldirib, piyoda, o‘z yurtiga zo‘rg‘a yetib kelibdi.

“Oqila qiz” kitobidan